

TARIX VA TARBIYA FANLARINI O‘QITISH METODIKASI

Ismayilova Nargiza, Komilova Yulduz

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi

29-sonli maktabning tarix fani o‘qituvchilari

Yuldasheva Sayyora - tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix va tarbiya fanlarining umumta’lim maktablarida o‘qitish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: metodika, tarbiya, texnik vosita, oila tarbiyasi.

Tarix darslarida ta’limning texnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Texnika vositalari o‘qitish va o‘rganish sifatini ko‘tarishga o‘quvchilarning o‘quv materialini qiziqib o‘rganishga va puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Tarix o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘quv materialini puxta o‘zlashtirib olishni ta’minlashga yordam beradigan har xil matnlar: darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy ommabop va badiiy asarlardan keng foydalanish mumkin. Tarixni yangi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarga bilim berish va malakalar hosil qilish bilan birga juda murakkab va mas’uliyatli tarbiyaviy vazifalarni ham amalga oshirishdir. Bunda ko‘proq o‘qituvchining g‘oyaviy tayyorgarligi, axloqiy qiyofasi, madaniyati muhim o‘rin tutadi. Demak, maktabda tarix o‘qitish, eng avvalo, o‘qituvchilarning saviyasiga, ularning nazariy bilimi va pedagogik mahoratiga, o‘qituvchi jonli nutqining didaktik talablariga javob bera olishiga bog‘liqdir. O‘qituvchining nutqi, bayonining ilmiyligi g‘oyaviy-siyosiy pishiqligi, tarbiyaviy xarakteri, ko‘rsatmaliligi, o‘quvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirishga, ularda ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga yordam berishi, fikrlar izchilligi va tushunarli bo‘lishi jihatidan hozirgi zamon uslublariga to‘liq javob beradigan bo‘lishi lozim. Tarix o‘qitishda o‘qituvchi ham, ayniqsa o‘quvchilar o‘qituvchi bayonini o‘zlashtirishda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelishadi. O‘quvchilar yozdirilgan izoh matnlarni xohlagan vaqtda qayta-qayta o‘qib chiqishlari mumkin, ammo o‘qituvchining bayonini qayta eshita olmaydilar. Shunda o‘qituvchining nazorati va rahbarlik qilishi ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. O‘qitish metodlari o‘qituvchining aktiv fikrlash asosida o‘quvchilarni o‘qitishga, o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va amalda qo‘llana bilishlariga, aqliy va jismoniy mehnat, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga, bilish va ijodiy qobiliyatlari o‘shishiga yordam berishni ta’minlovchi usullaridan iboratdir. Maktab ta’limi metodlari sistemasidan to‘g‘ri foydalanilgan taqdirdagina ta’lim tarbiya ishlari sohasida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Maktab ta’lim metodlari sistemasi deb eng muhim umumiy belgilari bilan o‘zaro bog‘langan, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan metodlar gruppasiga aytiladi.

Bu metodlarning umumiy muhim belgilari o‘qitish va o‘rganish usullari hamda o‘qituvchi va o‘quvchilarning tafakkur faoliyatidan iboratdir. Tarix o‘qitishning muhim vazifasi — tarixiy hodisalarga berilgan ilmiy baholarni va o‘rganilayotgan material yuzasidan chiqarilgan boshqa xulosalarni o‘quvchilarga ishonarli qilib tushuntirib berishdan iboratdir. Ma’nosini yaxshi tushunmasdan yodlab olingan xulosalar o‘quvchilar uchun ishonarli bo‘lmaydi, emotsional kechinmalari natijasida, tushunib, bilib olingan xulosalar ishonarli bo‘ladi. Tarix ilmi o‘quvchilarning tarixiy faktlarga, xalqlarning faoliyatiga, ijtimoiy sinflarning namoyandalariga, ijtimoiy ideologiya va shu kabilarga emotsional munosabatini uyg‘otadi. Tarixiy bilimlarni o‘zlashtirishning emotsionalligi bilimlarning puxta egallanishida, tarixga qiziqishni oshirishda, tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirishda, bu bilimni o‘rganishda, umuman o‘quvchilarning faolligini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi tarix fanining bugungi kun talablari va o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarixi kursining maqsad, vazifalariga javob beradigan eng muhim tarixiy faktlarni tanlay bilishi, ularni o‘quvchilar ongiga jonli va obrazli qilib yetkaza bilishi kerak.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya Tarbiya ishlarining aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, [maktab tarbiyasi](#), o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta’lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo‘lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o‘zlashtiradigan, ma’lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o‘rganadi. Shaxsga kasb-hunar o‘rgatish, kishining ma’naviy va g‘oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya o‘quvchilar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga [oid axloqiy tushunchalar](#), qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta’sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo‘ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo‘yicha ta’lim-tarbiya ko‘rib, istagan kasbni egallashi mumkin. Dunyo tabiiyashunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab berdi. Tarbiya va tarbiyaviy ishlar har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan xalq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish

to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma‘naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko‘rsatadigan tarbiya ishlar tizimi bo‘lishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006, 284 bet.
2. Axmedshina F. Qadimgi Yunoniston tarixiga kirish. Egey sivilizatsiyasi. Jizzax, 2004.
3. Boynazarov F.A. Qadimgi dunyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.:“A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 2004
4. Kostaskiy V.A. Tarix. Qadimgi dunyo. 6-sinf. O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma. T., 2003.
5. Muxammedov X. Xorijiy mamlakatlar davlati tarixi va qadimgi dunyo tarixi. 1-qism. T., 1999.